



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA O'YINLARNI FAOLIYAT SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Odilova S.K.

BuxDUPI 2-kurs maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Tayanch so'zlar: o'yin faoliyati, o'qitish metodi, eslash qobiliyati, his hayajoni, so'zlashi, fiklashi, emotsional holati tashabbuskorligi, mustaqillik va ijodiy faoliyatining rivojlanishi.

Ключевые слова: игровая деятельность, методика обучения, способность запоминать, эмоции, речь, мышление, инициативность эмоционального состояния, развитие самостоятельности и творческой активности.

Key words: game activity, teaching method, ability to remember, emotion, speaking, thinking, initiative of emotional state, development of independence and creative activity.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar tarbiyasida o'yinlarni faoliyat sifatida o'ziga xos xususiyatlari, o'yin faoliyati orqali bolalarda o'z vatani va millatiga xalqiga bo'lgan muhabbat, o'rtoqlariga mehr-muruvvatli, birodarlik munosabatida bo'lish kabi insoniy xislatlar mujassamlashib borishi haqida ma'lumot bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье дана характеристика игр как деятельности по воспитанию у детей дошкольного возраста любви к своей Родине и нации, доброму и братскому отношению к своим товарищам через игровую воплощенную деятельность.

SUMMARY:

In this article, the characteristics of games as an activity in the education of children of preschool age, the love of their homeland and nation, and being kind and fraternal to their comrades in children through game activities. It is informatively stated that human qualities are embodied.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, sharq mutafakkirlari Kaykovus, AbuAli Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Farobiy va boshqa bir qator allomalar bolalar tarbiyasida o'yinning ahamiyati qancha qanchalar beqiyos ekanligi haqida o'z fikrlarini bildirganlar. Va tabiiyki, bu fikrlarini o'zlarining durdona asarlarida muxrlab qoldirganlar. Ular o'yinning bola rivojlanishidagi aqliy- axloqiy, jismoniy barkamol bo'lib voyaga yetishishdagi o'rni haqida qimmatli maslahatlarini tarixiy manba sifatida meros bo'lib qolgan o'lmas risolalarda ta'kidlab o'tilgan.



O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni “bolalikning hamrohi” deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta‘lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ullanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san‘atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy Jamoa qabilalari o‘z o‘yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o‘sha davrdagi ba‘zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o‘yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilgan edi.

Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g‘oyalari hozirgi zamon bolalar o‘yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. “Bolalar o‘yini ko‘p asrlik tarixga ega, - deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - U insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan”. Yan Amos Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to‘g‘ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o‘yin - bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘stlashadi. Y.A.Komenskiy o‘yinga quvnoq bolalik va bolani uyg‘un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o‘yinlariga e‘tiborli munosabatda bo‘lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi.

P.F.Lestgaft bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib o‘yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o‘yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg‘or olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim.

o‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g‘ri munosabat o‘rnatish



o'yinda bolalarning bo'lajak mehnat ahliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi - tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmun jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi.

Navbatdagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Shunday qilib MTTning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

o'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;

o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;

o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi,



bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi.

Hozirgi zamon pedagog tarbiyachilari ham o'tgan zamon tarbiyashunoslari Y.A.Komenskiy, I.G.Peshtolotsi, K.D.Usheniskiy, V.A.Suxamlenskiy, Sh.A.Amanashvilining olib borgan ishlarini davom ettirib, ularni takomillashtirib, o'yinning bolalarni o'qitishda va tarbiya berishda o'yinning ahamiyatiga katta e'tibor bermoqdalar.

D. B. Elkonining "Psixologiya uchun" kitobida "o'yin davomida bolalarda jamiyat uchun foydali bo'lishlik faoliyati tuyg'usi jamoatchilik faoliyatiga qiziqish rivojlanadi", deb aytilgan.

L.S.Vigotskiy, A.N. Leonite, S.L. Rubinshteyn, D.Elkonin va boshqalar o'yin faoliyatiga katta e'tibor berib, o'zlarining tadqiqot ishlarida, o'yin bola shaxsiyatining: uning eslash qobiliyati, hishayajoni, so'zlashi, fiklashi, emotsional holati tashabbuskorligi, mustaqillik va ijodiy faoliyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Maktabgacha ta'lim tizimida o'yin faoliyatining bir turi o'qitish metodi, tevarak atrofni anglash yo'li sifatida peshqadam bo'lib kelmoqda.

O'yin faoliyatini rivojlantirishga B.G.Anashev, Y.B.Azarov, E.S.Mahlahlar ham o'z hissalarini qo'shganlar. Ular bola shaxsining shakllanishida o'yin faoliyatining o'rni ahamiyati haqidagi fikr mulohazalarini bildirganlar.

Xalq og'zaki ijodiyotining logopedik mashg'ulotlarda qo'llanishi o'zining qadimiy ko'hna tarixiga ega. Bo'lar-tez aytishlari, og'zaki hisob o'yinlari, hazilning mutoyiba va boshqalar.

Bular o'yinning qiziqarliligi oshiradilar va boyitadilar, shaklini esa zamonaviylashtiradilar.

Bolalar o'yinni juda sevadilar va shu bois uni o'ynashni xoxlaydilar. Lekin avvaliga buni qanday uddalashni bilmaydilar, anglab olgach esa, o'yindan bo'shamaydilar.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'yinlar, ayniqsa, xalq o'yinlari bola shaxsining rivojlanishida bir necha vazifalarni bajarib kelgan.

Birinchidan, bolada to'g'ri talaffuzni shakllantirishga ifodali she'rlarni yoddan aytib berish, o'ziga initsiyalarda hikoyalar so'zlash orqali erishilgan.

Ikkinchidan, hisoblash, tez aytish, topishmoqlarni tez yod olishga o'rgatgan.

Uchinchidan. Ertak va hikoyalar, ko'rgan-eshitgan voqealarini aytib berish mahoratining oshuviga erishilgan.

To'rtinchidan o'yin faoliyati orqali bolalarda o'z vatani va millatiga xalqiga bo'lgan muhabbat, o'rtoqlariga mehr-muruvvatli, birodarlik munosabatida bo'lish kabi insoniy xislatlar mujassamlashib borishi qaror topgan. O'yin chog'ida bolada mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi,



gapiradi, idrok qiladi, o'ylaydi uning holati xotirasi kuchli ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatleri namoyon bo'ladi.

Maxsus ta'limda ham logopedik mashg'ulotlar jarayonida olib boriladigan logopedik o'yinlarning o'ziga hosligi va mohiyati ham alohida mazmun kasb etadi. Logopedik o'yinlarning bola tarbiyasidagi o'rni va tutgan mavqei ham o'ziga hos sifatlarga ega. chunonchi logopedik o'yinlar o'zining tashkil etilishi va mazmuniga ko'ra, bolalarga ta'sir etish darajasiga ko'ra o'yinda qo'llaniladigan buyumlarning turlicha, kelib chiqishiga ko'ra turlichadir. Logopedik mashg'ulotlar jarayonida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun tashkil etiladigan o'yinlarni maxsus ta'lim nazariyasiga ko'ra ikki guruhga bo'lish juda keng tarqalgan: ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar va o'z taasurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda shu o'yinga bo'lgan munosabatlarni aks ettiradilar.

Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiritiladi. Qoidali o'yinlar o'z mazmuniga qarab, bolalar yoshiga mo'ljallanganligiga qarab belgilanadi. Qoidali o'yinlarning ko'pchiligi xalq o'yinlari asosida tashkil etiladi. Bunday qoidali o'yinlarning ko'plari avloddan-avlodga tayyor holda o'tib bizgacha yetib kelgan.

O'yinlar o'z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ko'ra shartli ravishda didaktik va musiqiy o'yinlarga bo'linadi. Didaktik o'yinlarda bolalarning avvalo aqliy faoliyati rivojlanib boradi, ular bilimlari chuqurlashadi va kengayadi; harakatli o'yinlarda bolalarning turli hatti-harakatlari takomillashadi: musiqali o'yinlarda esa musiqiy qobilyatlari rivojlanadi.

Shuningdek, logopedik o'yinlar orasida ko'ngil asrlari, o'yin ovutmacholari ham bo'ladi.

Demak har bir logopedik O'yinning o'ziga xos sifatlari mavjud, biroq ular bir qator umumiy xususiyatlarga ham egallar, ya'ni har qanday logopedik o'yinlarda maqsadning mavjudligi, o'yin sabablari, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlar va natijaning mavjudligi kabilar xosdir. Har qanday ko'rinishdagi logopedik o'yinlar tushunib olingan va maqsadga qaratilgan faoliyat tarzida kechadi. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani kabi o'yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati- psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti, ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi; oyinda bola faol harakat qiladi, gapiradi va o'z bilimlarini o'yin davomida qo'llaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar uchun o'tkazilayotgan logopedik o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari bor. Ular orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. Bola o'yindagi maqsadiga



Ijodiy o‘yinlar mazmunini bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar va o‘z taasurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda shu o‘yinga bo‘lgan munosabatlarni aks ettiradilar.

Qoidali o‘yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiritiladi. Qoidali o‘yinlar o‘z mazmuniga qarab, bolalar yoshiga mo‘ljallanganligiga qarab belgilanadi. Qoidali o‘yinlarning ko‘pchiligi xalq o‘yinlari asosida tashkil etiladi. Bunday qoidali o‘yinlarning ko‘plari avloddan-avlodga tayyor holda o‘tib bizgacha yetib kelgan.

O‘yinlar o‘z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishiga ko‘ra shartli ravishda didaktik va musiqiy o‘yinlarga bo‘linadi. Didaktik o‘yinlarda bolalarning avvalo aqliy faoliyati rivojlanib boradi, ular bilimlari chuqurlashadi va kengayadi; harakatli o‘yinlarda bolalarning turli xatti-harakatlari takomillashadi: musiqali o‘yinlarda esa musiqiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Shuningdek, logopedik o‘yinlar orasida ko‘ngil asrlari, o‘yin ovutmachoslari ham bo‘ladi.

K.D.Ushenskiy bolalarning o‘yindagi mustaqilligiga o‘ziga xos xususiyat sifatida qarab “O‘yin shuning uchun ham o‘yinki u bola uchun mustaqil mashg‘lotdir”, degan edi. Uning fikricha, o‘yin-bolakaylar voqeylik bo‘lganda ham uni o‘rab olgan narsalardan ko‘ra juda qiziqarli voqeylikdir. U bola uchun tushunarli bo‘lgani uchun ham qiziqarlidir. Haqiqiy hayotda bola bolaligicha qoladi, u hech qanaqa mustaqillika ega bo‘lmagan norasida, biroq o‘yinda u boshqacha odam-u endi kamol topayotgan, u endi o‘z kuchini sinab ko‘ra oladigan va o‘zi yaratgan narsasini mustaqil idora eta olasigan insonga aylanib boradi.

Turli ko‘rinishdagi o‘yinlarda qoidalar ham turlicha bo‘ladi. Masalan, rolli ijodiy o‘yinlarda qoidalar ham turlicha bo‘ladi. Masalan roli ijodiy o‘yinlarda qoida o‘yin mazmunining o‘zida rolda, syujetda mujassam bo‘ladi. Katta kishi roliga kirgan bola uning u yoki bu vaziyatdagi harakatiga mos harakat qiladi. Misol uchun shifokor qabuliga qizchasini keltirgan ona kirib kelishi, haydovchining esa ularni mashida eltib qo‘yishi.

Ijodiy o‘yinlar chog‘ida buyumlar, rollar, harakatlarning shartli xususiyatlarni barcha o‘ynovchilar tomonidan birdek qabul qilishi eng umumiy qoida hisoblanadi. Busiz o‘yin bo‘lishi mumkin emas. Masalan, “tabiat qo‘yniga sayr” qilayotgan bolalar o‘z guruhlardagi gilamni dengiz, qo‘llaridagi karton trubachani durbin, stol-stullardan qurilgan inshoot-kema ekinligiga ishonmoqlari kerak.

Amaliy va didaktik o‘yinlarda qoidalar harakatlarning tabiati va izchiligini, o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilaydi.



Qoidalarning xilma-xil bo‘lishiga qaramay, o‘yin o‘ynovchi bolalar barcha hollarda o‘yin manfaatlariga bo‘ysingan holda ixtiyoriy tarzda bajaradilar, chunki qoidalarning buzilishi o‘yinning tugashiga va tez tarqab ketishiga olib keladi. Bolalar esa kundalik hayot talablarini bajarishga qaraganda o‘yin qoidalarini bajarishga bir muncha toqat, diqqat, chidamlilik ko‘rsatadilar. Bunday paytida qoidalar bolalar xatti-harakatini boshqaruvchi mexanizm sifatida asqotadi.

O‘yinda bolaning tafakkuri va xayoloti faol ishlaydi. Tashabbus va ijodiylik ko‘rsatish turli ko‘rinishdagi o‘yinlarda turlichadir. Ba’zi hollarda u o‘yin syujetining ko‘rilishi va mazmuning tanlashi, rollarning taqsimlanishi o‘yin vaziyatini yaratishdagi topqirlik bilan bog‘liqdir. Ikkinchi bir hollarda esa ijodiylik harakat usullarini tanlashda namoyon bo‘ladi. (berkinmachoq, to‘p o‘yini boshqotirma kabi o‘yinlar). Uchinchi bir holda bilim va ko‘nikmalarini tez safarbar etishda (lotto rolli ijodiy o‘yinlar). Ko‘pchilik o‘yinlar sheriklar harakatlarini oldindan ko‘ra olishni va shundan kelib chiqib, o‘z xatti-harakatini yoki harakat usulini o‘zgartirishni talab qiladi. (Shashka, lotto, rolli o‘yin) dramalashtirilgan o‘yinlarda ijodiylik, ifodalilik vositalarining tanlanishida (mimika, pantomimo; ovoz ohang) namoyon bo‘ladi. Ko‘pchilik o‘yinlar topqirlikni vaziyatning o‘zgarishiga qarab tezkor harakat qilishni talab etadi.

Shunday qilib logopedik o‘yinlar maktabgacha ta’lim yoshidagi nutq, to‘liq rivojlanmagan bolalarning aqliy, nutqiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida yuzaga chiqadi va o‘ziga xos xususiyatlar bilan birga o‘ziga xos tarzda nomoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”. 2019 y.- 688 b
2. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V. Pak, G.E.Djanpeisova “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi T: 2018 y - 72 b
3. Sh.A.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari” T.: 2013 y.- 293 b
4. N.M.Qayumova “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T.: 2013 y. -183 b
5. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafiyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (Takomillashtirilgan) T: 2022 y.- 102 b
6. Гогоберидзе А. Г., Солнцева О. В. Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения. Учебник. СПб.: Питер, 2013.- 464 с.
7. С.А.Козлова, Т.А. Куликова Дошкольная педагогика: учебник М.: Academia, 2001. – 416 с